

**TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INOVATSION
TEXNOLOGIYALARING ROLI**

Radjabov Alisher Esanovich

Jizzax SAMBHRAM universiteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tadbirkorlikni rivojlantirishda inovatsion texnologiyalarning ro'li haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion tadbirkorlik, mahsulot, ishlab chiqish, tadbirkor, innovator, ilg'or texnologiyalar.

Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati bu- iqtisodiy foydadir) — o'z tavakkalchiligi ostida amalga oshiriladigan, mulkka egalik qilish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishdan muntazam ravishda daromad olishga qaratilgan mustaqil faoliyat sanaladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu lavozimda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Tizimda foyda keltirmaydigan tovarlarni sotish kabi ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishning alohida hollari tadbirkorlik hisoblanmasligi aniq. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun tadbirkorning o'zi tomonidan, tashqaridan jalb qilingan mulklar ya'ni nomoddiy aktivlari va mehnat resurslari ham qo'llanilishi lozim. Sarflangan mablag'lar o'zini qoplashiga, ishlab chiqarilgan narsa foyda bilan sotilishiga kafolat yo'q. Bu mulkni to'liq yoki bir qismini yo'qotish xavfi bilan bog'liqdir. Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi nafaqat foyda miqdori, balki korxona qiymatining o'zgarishi bilan ham baholanishi mumkin (korxonaning bozor qiymati, yaxshi niyatga ham bog'liq bo'ladi).

Odatda g'oyani shakllantirish quyidagi bosqichlar bilan ajralib turadi:

Tadbirkorlik g'oyasini yaratish;

G'oyaning birinchi ekspert bahosi;

Bozor ma'lumotlarini olish (talab va taklif o'rtaсидаги bog'liqlikni aniqlash, narxlarni aniqlash va boshqalar);

G'oyani amalga oshirish uchun xarajatlarni hisoblash;

G'oyani amalga oshirish uchun bozor ma'lumotlari va xarajatlarini ekspert baholash;

Tadbirkorlik qarorini qabul qilish, g'oyani amaliy amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish.

Qaror qabul qilish uchun diqqat bilan marketing yoki bozor holatini, raqobatchilar o'rtaсидаги munosabatlarni, talab va taklifda mumkin bo'lgan o'zgarishlarining ilmiy prognozlarini, aholining xarid qobiliyatini o'rGANMASDAN turib amalga oshirib bo'lmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, yangi g'oyalarning ko'plab manbalari

mavjud, misol uchun: shartnoma bo'yicha biznes hamkorlar va kontragentlarning sharhlari, raqobatchilarning mahsulotlari, davlat organlarining nashrlari, patent idoralarining ma'lumot varaqalari kabilar kiradi. Tadbirkorlik faoliyati ko'pincha kichik biznes bilan bog'liq bo'lsa, egasi ham yetakchi hisoblanadi. Katta kompaniyada boshqaruv funksiyalari ko'pincha yollangan menejerlar tomonidan amalga oshiradi ammo kompaniya asoschisi daromad olishi hammaga ma'lum. Faqatgina vaqtiga vaqtiga bilan umumiylig'i ilishlarda ovoz berishadi. Ba'zida ijtimoiy tadbirkorlik alohida toifa sifatida ajratiladi.

Innovatsion tadbirkorlik - bu tijorat faoliyati turi bo'lib, maqsadi - milliy iqtisodiyotning barcha jahbalarida texnik va texnologik innovatsiyalarni yaratish va innovatsiyalarni tarqatish orqali daromad olishdir. Oddiy tadbirkorlikdan farqli o'laroq, yangi texnologiyalarni yaratish, boshqaruvning yangi shakllarini qo'llash, yangi mahsulotlarni yaratish kabi yangi usullarni qo'llash innovatsion tadbirkorlikka xosdir. Tadbirkor va innovatorning vazifasi ishlab chiqarishning yangi texnologik imkoniyatlarini o'zlashtirib, boshqalardan farqli mahsulotni ishlab chiqishdir.

Korxonaning innovatsion loyihasi uchun moliyalashtirishning umumiylig'i hajmi quyidagi manbalardan iborat:

- Korxonalarni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish xarajatlarini qoplash uchun mablag'lar;
- Modernizatsiyalangan mahsulotlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish, ilg'or texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlarini moliyalashtirish mablag'lari;
- Rivojlanish davrida yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni qoplash vositasi;
- Banklarning uzoq muddatli kreditlarini qaytarish, shuningdek, ularga foizlar berish.

Innovatsiyalarni tizimli ravishda rag'batlantirish bo'yicha bir qancha takliflarni keltirish mumkin. Masalan: yuqori texnologiyali sohalardagi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini (kam stavkalar va soliq ta'tillari) berish, turli soha korxonalarida innovatsiyalarni rivojlantirish uchun intellektual resurslarni shakllantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlari va o'quv muassasalarini yaratish, innovatsiyalardan foydalanishni rag'batlantirish uchun vositalarni joriy etish (grant, reyting va boshqalar), korxonalar uchun innovatsiyalarning moliyaviy ta'minot vositalarini shakllantirish (kreditlar, subsidiyalar), oliy o'quv yurtlari va ta'lim muassasalari negizida ilmiy maktablarni yaratish. Tadbirkorlik faoliyati va innovatsion tadbirkorlik bir-biridan farqlanadi. Tadbirkorlikda yangi g'oyalarni faol izlash va ularni amalga oshirishni tahlil qilish, biznes-rejani shakllantirish, talab qilinadigan resurslarni faol izlash, yangi firma boshqaruv mexanizmini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Innovatsion tadbirkorlik esa yanada kengroq qamrovni nazarda tutadi, ya'ni innovatsion g'oyalarni kompleksini ishlab chiqish va istiqbolli g'oyani tanlash, biznes-

rejani batafsil o'rganish va ekspertizadan o'tkazish, mahsulot ishlab chiqarish va ularni bozor sharoitida sinash tajribasi, bozorda ishlab chiqarish va sotish sxemasiga tuzatish kiritish va h.k. Xususan, O'zbekistonda ham 2018-yil – “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili” da qator yangiliklar amalgalashirildi. Davlat dasturida “Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida innovatsion menejmentni rivojlantirish, yangi va talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha innovatsion loyihibar – startaplarni, jumladan, xorijda qo'llaniladigan ilg'or uslub va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va o'zlashtirish, investorlar va innovatsion infratuzilma subyektlari o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish orqali tashkil etish” kabi mavzular o'z aksini topgan. Shunday qilib, innovatsion tadbirkorlikni sifat jihatidan yangi, ayni paytda innovatsiyalarni doimiy ravishda izlashga, innovatsion komponentga yo'naltirilgan iqtisodiy jarayonga aylantirishning maxsus innovatsion jarayoni sifatida talqin qilish mumkin. Bu tadbirkorlar yangi biznes loyihasini amalgalashirish yoki davom etayotgan loyihami takomillashtirishga tayyor. Umuman olganda, innovatsion tadbirkorlikni davlat texno-iqtisodiy jarayoni deb tushunish mumkin, buning natijasi sifatida innovatsiyalarni amaliy sinovdan o'tkazish yo'li bilan eng yaxshi va yuqori sifatli yangi mahsulot, ish, xizmat va texnologiyalarni yaratilishini ko'rish mumkin. Shunday ekan, innovatsiyalar davlatning rivojlanishida katta o'rin tutib, bu jarayonni tezlashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. Xususan, O'zbekistonda qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar ba ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo'yilgan qonun loyihamida o'z aksini topgan. Innovatsion faoliyat to'g'risida 2020 yil 27 iyuldagagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi “2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili”da amalgalashirishga oid davlat Dasturi to'g'risida”gi prezident farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 26 martdagagi PF-5975- son Farmoni, «O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2020 yil 26 martdagagi PQ-4653-son, «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4862-son qarorlari, “O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi

tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to‘g’risida ” 2021 yil 17 fevraldagи O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kabi myoriy hujjatlar shular jumlasidandir. Ushbu hujatlarni qabul qilishdan maqsad tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish, innovatsiyalar uchun qulay bo‘lgan normativhuquqiy, moliyaviy va axborot muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag’batlantirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg’or boshqaruvni qo’llashni kengaytirishdir. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash; yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag’batlantirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg’or boshqaruvni qo’llashni kengaytirishra ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir. Mavzuga doir adabiyotlar tahlili Ayrim mualliflarning fikricha, an’anaviy iqtisodiyot ham, boshqa asosda rivojlanayotgan yangi iqtisodiyot ham mavjud. Bizning fikrimizcha, bu ikki modelni qaramaqarshi qo’ymasdan ikkalasining ijobjiy tomonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi, chunki an’anaviy iqtisodiyot zamirida yangisi asta-sekin rivojlanib borishini namoyish etadi. Darhaqiqat, zamonaviy dunyoda innovatsiyalar ishlab chiqarish omiliga aylangani haqiqatdir. Ma'lumki, an’anaviy ravishda ishlab chiqarishning uchta omili mavjud: yer, mehnat va kapital. Ularni birinchi bo’lib J. B. Sey tahlil qilgan edi.[1] Hozirgi vaqtida bu omillar odatda tadbirkorlarning qobiliyatini va ba’zi mualliflarning fikriga ko’ra, axborot omilini ham o’z ichiga oladi va shu bilan iqtisodiyotni rivojlantirishda axborotning rolini ta’kidlaydi. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlar imkoniyatlarini innovatsiyalar bilan almashtirish yoki ikkala yangi “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 240 <http://iqtisodiyot.tsue.uz> omilni ham an’anaviy omillar bilan bog’lash to‘g’riroq bo’ladi. Hozirgi vaqtida ishlab chiqarish omillarini o’rganish orqali tahlil chuqurroq olib boriladi va har bir omil parchalanadi. Yer yoki tabiiy omillar - tadbirkorlikning asosi sifatida foydalanish uzoq muddatli raqobatdosh ustunliklarni ta’minlamaydigan omillardir. Bundan tashqari, tabiiy resurslarning ko‘p turlari qayta tiklanmaydi va bir muncha vaqt o’tgach tugashi mumkin. Boshqa tomondan, innovatsion omil amalda bitmas-tuganmas va u innovatsiyalarni keltirib chiqaradi, ularni ishlab chiqarishga joriy etish mumkin; ularning kengayishi uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlashi mumkin, chunki u

hozirgi vaqtida yangi, ayniqsa rivojlangan omillarga asoslangan. Aslida, bunday nuqtai nazarni "mutlaqo yangi"deb bo'lmaydi. Yuqorida aytib o'tilgan "Sey" ishlab chiqarish omillarini tahlil qilar ekan, tadbirkorning rolini ta'kidlaydi, chunki u quyidagi ishlab chiqarish omillarini muvofiqlashtiradi: yer, kapital va mehnat, shuningdek, u juda keng qo'llagan mehnat omili, shu jumladan nafaqat mehnat, balki mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan ilmiy xulosalar va bilimlarni ham hisobga olgan . Bu fikrni ingliz olimi G. A. Gobson yanada yorqinroq ifodalab, ijodiy qobiliyatlarni ishlab chiqarish omillariga ham kiritgan. Iqtisodiy tizimning yangi mahsulotlar paydo bo'ladigan, yangi bozorlar paydo bo'ladigan, yangi texnologiyalar joriy qilinadigan qismini tahlil qilib, uni "progressiv ishlab chiqarish sohasi" deb atadi. Hozir biz uni innovatsion iqtisodiyot deb ataymiz. Albatta, innovatsiya kabi hodisani o'rghanish jarayonida ikki olim, ya'ni N.Kondratiev va avstriyalik J.A.Shumpeterning nomlarini unutmaslik kerak. Aynan Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" tadqiqotida innovatsiya tushunchasiga birinchi bo'lib ta'rif bergen. U innovatsiyani tijorat muammolarini hal qilishga qaratilgan mavjud ishlab chiqarish omillarining ilmiy va tashkiliy birikmasi sifatida talqin qildi. Shumpeter bevosita innovatsiyalarda iqtisodiy tizimlarning rivojlanish manbasini payqadi. Chunki o'ziga xos kontent innovatsiyasi-bu o'zgarishlar, ular beshta tipik o'zgarishlarga e'tibor berib, ta'kidlagan:

"Innovatsiya" tushunchasi (inglizcha Innovation-kiritilingan yangilik, ixtiro) yangilikka investitsiya kiritish ma'nosida ishlatiladi. Innovatsiya tushunchasi iqtisodiyotga XX asr boshlarida kirib kelgan. Avstraliyalik iqtisodchi olim Y.Shumpeter birinchi marotaba innovatsiyalarga oid masalalarni ko'rib chiqqan va innovatsion jarayonga to'liq ta'rif bergen. Iqtisodiy adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasiga ko'pchilik mualliflar tomonidan turlicha yondoshuvlar keltirilgan. Ko'pchilik mualliflar yangilik kiritishni iqtisodiy tadbiq etish jihatidan nazarda tutadi, ya'ni yangi resurslarni tashkil etish yoki mavjud bo'lganlarini noan'anaviy holda yangicha ishlatilishini nazarda tutadilar.

A.Busiginning fikriga ko'ra, innovatsiya bu asosiylar yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ilm fan, texnika va texnologiyalar yordamida yangilashdir.

R.Fatxutdinovning fikriga ko'ra, innovatsiya yangilikni tadbiq etishning yakuniy natijasi bo'lib, ob'ekt boshqaruvini o'zgartirish ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy, ekologik va boshqa ko'rinishdagi samaradorlikdir.

Yuqoridagi ta'riflardan xulosa qilib, innovatsiya – bu yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or ilm-fan yutuqlarini joriy etish yo'li bilan yangi tovarlar yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini oshirishdir. Innovatsiya har bir sohada bo'lishi mumkin. Masalan, fanda, uning bir yo'nalishida yirik yangiliklarga erishish, kashfiyotlar yaratish, izlanishlarda, ilm sohasida yangi ilm va bilimlarni ochish, texnika va texnologiyalarni yangi avlodini

yaratish, ishlab chiqarish sohalarida, xizmat ko'rsatishda yangi usullarni kiritish va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtisodiyotda esa fan, texnika, texnologiyalar sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni qo'llashni bildirishi mumkin.

Innovatsion faoliyat qaysi sohada bo'lmasin, kashfiyotlar, e'lon qilingan yangiliklar, texnika va texnologiya yutuqlari va texnologik jarayonlarni yangilash, mahsulot bilan ta'minlash va boshqa yo'naliшhlardagi barcha yangiliklarni tizimli ravishda uzuksiz joriy etib borishni ta'minlash jarayonidir.

Jahon gloaballashuvi jarayonida kuchli raqobat har sohada yangilikka undaydi. Fandagi texnika-texnologiya sohalaridagi eng so'nggi yutuqlar, kashfiyotlar, yangiliklar, ratsionalizatorlik takliflarni ishlab chiqish va xizmat ko'rsatish sohalariga shiddat bilan kiritilib boriladi va marketing, boshqaruv, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida yangi yondashuv, yangi texnologiya, texnikalarni qo'llashni talab qiladi va texnologiyalarni yangi avlodini qo'llash asosida mablag' kiritilishi investitsiyadan dalolat beradi. Yangilik kiritilishi asosida mavjud texnika va texnologiyalarni almashtirilishi ham investtsiyani anglatishi mumkin. Fan va texnika taraqqiyoti natijalari asosida yangi texnika, texnologiyalarni qo'lga kiritilishi ham investtsiya ma'nosida ishlanadi. Investtsiyani aniqlovchi omil bo'lib yangilik yaratilishi, ratsionalizatorlik takliflar yirik tashkilotlar va shunga tegishli ilgari e'lon qilinmagan yirik ishlanmalar xizmat qiladi.

Kichik raqobat muhitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida investtsiya ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyani qo'llash asosida tashkil etishni, xizmat ko'rsatish sohasida yangi, avval qo'llanilmagan xizmat turlarini nazarda tutadi. Innovatsiya tushunchasi yangi maxsus turlarni mavjud ishlab chiqariladigan mahsulotni almashtiruvchi, uning o'rmini bosuvchi yangi mahsulotni ishlab chiqarishni ham anglatadi. Kuchli raqobat muhitida yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash asosida yangi mahsulotni, yangi bozorga olib chiqishni ham bildiradi. Investtsiya kashfiyotlar asosida fan va texnika sohasida yangi bilimlarni qo'llashga kiritilishini, yangi ilg'or texnika va texnologiyalarni yaratilishini, ularni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llanilishini, ular asosida yangi tovar va xizmatlarni yaratilishini va ular hisobiga raqobatni kuchaytirishni, yangi bozorni egallashni ham anglatadi. Innovatsiya an'anaviy va yangi ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoq sohalarida iqtisodiy o'sishni va raqobatbardoshlikni doimiy ravishda ta'minlovchi zaruriy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsiyaning asosiy xususiyatlari:

Ilmiy-texnik yangilik;

Amaliy qo'llanilishi;

Tijoriy amalgal oshirilishi, ya'ni bozorda ma'lum darajada iste'molchilar talabini qondira olishi.

Umuman olganda, innovatsion jarayon - bu yangilik goyadan mahsulotgacha shakllanishi va bozorga tarqalishidir.

Innovatsion jarayon bosqichlari:

1-bosqich bu yangi g'oya va bilimlar;

2-bosqich bu yangilikni (novatsii) amaliy faoliyatga tadbiq etish, ya'ni innovatsiya;

3-bosqich bu innovatsiyalar diffuziyasi. Ya'ni innovatsion mahsulot, xizmat va texnologiyalarni yangi makon va sharoitlarda qo'llanilishi.

Shunday qilib, "innovatsiya" tushunchasi barcha sohalardagi (ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va boshqa) ishlanmalar, yangiliklar va takomillashtirilgan vositalar sifatida, sarf-xarajatlar imkoniyatlarini ta'minlaydi yoki bo'lmasa ularni ta'minlash uchun sharoit yaratadi. Innovatsiyalarni oxir-oqibat maqsadi tovar (mahsulot) raqobatbardoshligini kuchaytirish, uning bozorini kengaytirish, firma (korxona) faoliyati barqarorligini ta'minlash asosida foyda (daromad) hajmi va normasini ko'paytirishdir.

Innovatsiyalar o'zining predmeti va qo'llash sohalari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

-mahsulotli (yangi tovar yoki xizmatlar);

-bozorboplrik (tovarni ishlatilishini yangi sohalarini tashkil etuvchi yoki xizmatlarni yangi bozorda tadbiq etish);

-innovatsiyalik jarayonlari (texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish jarayonlari)

Innovatsiyalarni qayd etilgan mezonlar bo'yicha tiplarga ajratish firma (korxona) strategiyasini aniqlash, innovatsiya tiplaridan kelib chiqib tovar (xizmatlari) realizatsiya shakllari hamda iqtisodiy mexanizm boshqarish shakllarini ishlab chiqish imkoniyatlarini beradi. Har qanday yangilik, ya'ni innovatsiya aniq loyihalarda o'z ifodasini topadi, aniq maqsadlarga qaratiladi hamda chuqur hisob-kitoblar, tahlil va ekspertiza asosida bo'lajak natijalari istiqboli aniqlanadi. Innovatsiya har qanday sohada yangilikni qo'llash bo'lib, uzlusiz jarayonni bildiradi, tizimli faoliyatni, aniq strategiyani amalga oshirishdan dalolat beradi. Yangilikka intilish, yaratuvchanlik, kashfiyotlar va ular asosida qo'lga kiritiladigan ishlanmalar har qanday sohada resurs talab etadi. Har qanday iqtisodning bosh bo'g'inini ishlab chiqarish tashkil etishi munosabati bilan, uni muntazam ravishda yuksaltirish, yangilanishni, ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanishni, progressiv boshqaruva usullarini qo'llashni, turli yo'nalishlarda samara keltiruvchi iqtisodiy-moliyaviy resurslarni, ya'ni investitsiyalarni kiritishni talab etadi. Makroiqtisodiy darajada innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratiladi va iqtisodiy taraqqiyotni umumiyl shart-sharoitlarini yaxshilab boradi hamda iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirishini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida

ishlab chiqarish mukammal omillarga ega bo‘lishi talab etiladi va zaruriy iqtisodiy resurslar, ya’ni investitsiyalarni talab etadi. Bunda innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimning moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g’oyaviy-siyosiy belgilarini takomillashtirilishiga safarbar etiladi. Bunday investitsiyalar resurslar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, xizmatlar, mulkchilik shakllari, iqtisodiy mexanizm, intilinayotgan g’oya va siyosatning ustuvorligini ta’minlanishiga qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, makroiqtisodiyot darajasida innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar kuchli raqobat muhitida firma (korxona)larning raqobatbardoshligini ta’minlash bilan bog’liq bo‘lgan ularning mavqeini mustahkamlash bilan, samaradorligini yuksaltirish, foyda (daromadi) hajmi va me’yorini oshirish bilan bog’liq bo‘lgan investitsiyalardir.O‘zbekiston iqtisodiyotida firma (korxona)lar hayotiyligini ta’minlash, ular rivojlanishi va daromaddorligini orttirish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan holda, jahon talablari darajasidagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishdir. Yangi, zamonaviy va ilg’or texnika-texnologiyalarni qo‘llagan holda sifatli, arzon tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarga etkazish uchun qaratilgan investitsiyalar innovatsion investitsiyalardir. Erkin raqobat muhitida firma (korxona) innovatsiya strategiyasini yaxlitlikda ta’minlashga qaratilgan investitsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Qosimova Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Toshkent-2019[1]
2. A.G’aniyev Tadbirkorlik asoslari Toshkent-2017[2]
3. T.Qudratov Korxonalarda tadbirkorlik faoliyati Toshkent-2016[3]
4. S.Salayev Tadbirkorlik asoslari Toshkent-2016[4]
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag’allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g’risida» 2020 yil 26 martdagi PF-5975- son Farmoni , «O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g’risida» 2020 yil 26 martdagi PQ-4653-son, «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risida» 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4862-son qarorlari, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to‘g’risida ” 2021 yil 17 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kabi myoriy hujjatlar shular jumlasidandir.[5]